



**TERMIZ VA VINCHESTER SHAHAR TOPONIMLARIDA NOMINATSION
MOTIVATSIYA: QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.045>

Shoyimova Komila O‘rol qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

komila_shoyimova@tues.uz

Orcid:<https://orcid.org/0009-0004-0881-5236>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida toponimlarning chog‘ishtirma tahlili Termiz va Vinchester shaharlari toponimik ob‘ektlari nomlari misolida yoritildi. Toponimlar til va madaniyatning uzviy birligi sifatida ko‘rib chiqilib, ularning struktur-semantik, lingvokulturologik hamda etnolingvistik xususiyatlari izohlandi. Tadqiqotda oykonim, gidronim, oronim, urbanonim va ergonimlar kabi toponimik birliklar tasnifi, ularning nominativ motivatsiyasi hamda milliy qadriyatlarni ifodalashdagi o‘rni asoslandi. Shuningdek, Termiz va Winchester toponimik makonida nomlash an‘analari, tarixiy qatlamlar va metaforik/konnotativ elementlar tahlil qilindi. Natijada har ikki til va madaniyatda toponimlarning paydo bo‘lish omillari, semantik qatlamlari hamda lingvokulturologik belgilari o‘rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlandi.

Kalit so‘zlar: toponimika, oykonim, urbanonim, nominatsiya, lingvokulturologiya, etnolingvistika, Termiz, Winchester, semantik motivatsiya, toponimik qatlam.

Аннотация. В статье рассматривается сопоставительный анализ топонимов в узбекском и английском языках на материале топонимических объектов городов Термез и Винчестер. Топонимы анализируются как единство языка и культуры; раскрываются их структурно-семантические, лингвокультурологические и этнолингвистические особенности. Особое внимание уделено классификации топонимических единиц (ойконимы, гидронимы, оронимы, урбанонимы, эргонимы), их номинативной мотивации и роли в отражении национальных ценностей. Также анализируются традиции наименования, исторические пласты и метафорические/коннотативные элементы в топонимическом пространстве Термеза и Винчестера. В результате выявлены сходства и различия факторов формирования топонимов, их семантических слоев и лингвокультурных признаков в обеих языковых картинах мира.

Ключевые слова: топонимика, ойконим, урбаноним, номинация, лингвокультурология, этнолингвистика, Термез, Винчестер, семантическая мотивация, топонимический слой.

Abstract. This article presents a comparative analysis of toponyms in Uzbek and English based on the toponymic objects of Termez and Winchester. Toponyms are examined as an integral unity of language and culture, emphasizing their structural-semantic, linguocultural, and ethnolinguistic features. The study focuses on the classification of toponymic units such as oikonyms, hydronyms, oronyms, urbanonyms, and ergonyms, as well as their nominative motivation and their role in reflecting national values. Naming traditions, historical layers, and metaphorical/connotative components in the toponymic space of Termez and Winchester are also analyzed. The findings reveal both similarities and differences in the factors shaping toponyms, their semantic layers, and linguocultural markers in the two linguistic worldviews.

Keywords: toponymy, oikonym, urbanonym, nomination, linguocultural studies, ethnolinguistics, Termez, Winchester, semantic motivation, toponymic layer.

Kirish. Toponimlar – jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va milliy tafakkurini o‘zida mujassam etuvchi til birliklaridan biridir. Insoniyatning geografik makonni anglash va belgilash ehtiyoji natijasida yuzaga kelgan joy nomlari vaqt o‘tishi bilan ma’lum hududning tarixiy voqealari, etnik tarkibi, diniy qarashlari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti haqidagi ma’lumotlarni saqlab qoladi. Shu jihatdan toponimika nafaqat tilshunoslikning, balki tarix, geografiya, etnologiya, kulturologiya kabi fanlarning ham kesishgan nuqtasida shakllangan kompleks tadqiqot yo‘nalishidir.¹ Toponimlarni chog‘ishtirma tahlil qilish esa til va madaniyatlararo o‘xshash hamda farqli belgilarni aniqlash, umumiy qonuniyatlarni yuzaga chiqarish imkonini beradi. Ayniqsa, turli tipdagi ikki shaharning toponimik makonini tahlil qilish (masalan, O‘zbekistonning qadimiy shahri Termiz hamda Angliyaning tarixiy shahri Winchester) har ikki xalqning mentaliteti, nominatsion tafakkuri va lingvokulturologik qadriyatlari namoyon bo‘lishini ochib beradi.²

Ushbu maqolada Termiz va Winchester shaharlari toponimik ob’ektlari nomlari misolida o‘zbek va ingliz tillarida toponimlarning struktur-semantik, etnolingvistik hamda lingvokulturologik jihatlari chog‘ishtirib yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Termiz va Winchester shaharlari toponimik obyektlari asosida o‘zbek va ingliz toponimlarining nominatsion, struktur-semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini chog‘ishtirma asosda tahlil qilish. Toponimika va toponim tushunchalarining nazariy asoslarini yoritish; Termiz va Winchester toponimik tizimida uchraydigan asosiy toponim turlarini tasniflash; toponimlarning semantik motivatsiyasi va nominatsion modellari aniqlash; urbanonim va ergonimlarning metaforik hamda konnotativ qatlamlarini tahlil qilish; natijalarni umumlashtirib, toponimlarning lingvokulturologik ahamiyatini asoslash.

Toponimika nazariyasining umumiy masalalari o‘zbek tilshunosligida uzoq yillardan buyon muntazam o‘rganib kelinadi. Xususan, toponimlarning tarkibiy-semantik tahlili, tarixiy-etimologik qatlamlari, joy nomlarining kelib chiqishi hamda o‘zgarish qonuniyatlari masalalari bo‘yicha Oxunov, Rahmatov, Latipov va Xurramov, Mingbayev, Holmuminov, Begimov, Enazarov, Aslonov, Bo‘riyev, Ulug‘ov, Rajabov, Temirov kabi olimlarning izlanishlari muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi: tavsifiy metod, etimologik tahlil, semantik tahlil, chog‘ishtirma-tarixiy metod, lingvokulturologik talqin, tasniflash va statistik kuzatuv elementlari.

Natija va muhokamalar

Toponimlar har bir xalqning tarixiy xotirasi, hududiy tafakkuri va madaniy mentalitetini aks ettiruvchi lingvistik birliklardir. Ular nafaqat geografik ob‘ektni nomlaydi, balki shu makonda yashagan jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti, etnik tarkibi, diniy e‘tiqodlari, migratsiya jarayonlari va madaniy qadriyatlarini ham o‘zida mujassam etadi. Shu sababli toponimika zamonaviy tilshunoslikning muhim sohalaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, uning metodologiyasi lingvistik, tarixiy, etnografik va kulturologik yondashuvlarning uyg‘unligiga asoslanadi¹².

Toponimlarning chog‘ishtirma tahlili til birliklarini ikki yoki undan ortiq til va madaniyat kontekstida qiyoslash, ularning umumiylik hamda farqliliklarini ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, Termiz (O‘zbekiston) va Winchester (Angliya) kabi tarixiy jarayonlarda turlicha taraqqiy etgan shaharlarning toponimik makonini solishtirish, toponimlarning nominatsion modellari, semantik motivatsiyasi va lingvokulturologik qatlamlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi¹³. Mazkur ikki shahar toponimik tizimi turli tarixiy bosqichlar ta’sirida shakllangan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat – har ikkisida ham joy nomlarining xalq madaniyati va tarixiy meros bilan uzviy bog‘liqligidir.

Toponimlarning struktur-semantik tabiati va onomastik xususiyatlari

Toponimlar umumiy lug‘at tarkibidagi so‘zlardan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, toponimlar nominativ birlik sifatida obyektни ajratib ko‘rsatish, uni identifikatsiya qilish vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, toponimlar semantik jihatdan ko‘p qatlamli bo‘lib, ular ichida tarixiy-etimologik ma‘no, zamonaviy til me‘yoridagi ma‘no hamda qo‘shimcha konnotativ-madaniy komponentlar mavjud bo‘ladi¹⁴. Masalan, Termiz hududida uchraydigan ayrim toponimlar ilk shakllanish bosqichida oddiy geografik belgi bildirgan bo‘lsa, keyinchalik diniy, tarixiy va madaniy qiymat bilan boyigan. Xuddi shunday, Winchester urbanonimlarida ham obyekt nomi dastlab lokativ belgini bildirgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan shahar tarixini “til orqali kodlash” vositasiga aylangan. Toponimlarning struktur-semantik tahlili ularning qurilish modeli va ma‘no motivatsiyasini aniqlash bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi toponimlarda ko‘pincha ikki yoki undan ortiq komponentli nomlar

¹² Begmatov E. O‘zbek onomastikasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2007. – 15 b.

¹³ Qodirov A. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 33 b.

¹⁴ Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002. – 214b.

uchraydi: “Fayoztepa”, “Qirq-qiz”, “Sulton Saodat”, “Hakim at-Termiziy majmuasi” va boshqalar. Bunday birliklar o‘zida tarixiy shaxs nomi, diniy qadriyat yoki obyektning tabiiy belgisini ifodalovchi komponentlarni jamlaydi.⁴ Ingliz urbanonimlarida esa “Road”, “Street”, “Lane”, “Bridge”, “Hill”, “Gate” kabi struktur markerlar faol bo‘lib, ular nominatsiyada obyektning joylashuvi, harakat yo‘nalishi yoki shahar kommunikatsiya tizimidagi o‘rnini ko‘rsatadi: “High Street”, “Romsey Road”, “Jewry Street”, “St Cross Road” kabi nomlar bunga misol bo‘la oladi. Demak, Termiz toponimlarida semantik motivatsiya ko‘proq tarixiy-madaniy omillarga bog‘langan bo‘lsa, Winchester toponimlarida funksional-lokativ motivatsiya kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Termiz shahar toponimikasida nominatsiya jarayonining tarixiy-madaniy asoslari

Termiz O‘zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, uning toponimik tizimi qadimgi Baqtriya va Kushon davri, buddaviylik, islomiy uyg‘onish hamda keyingi tarixiy bosqichlar bilan bog‘liq. Shahar qadimiy savdo yo‘llari kesishgan nuqtada joylashgani sababli bu hududda turli tillar va etnoslar izini ko‘rish mumkin. Termiz toponimikasida uchraydigan ko‘plab nomlar tarixiy yodgorliklar, diniy shaxslar va muqaddas maskanlar bilan bog‘langan. Masalan, “Sulton Saodat” toponimi nomlash motivatsiyasida sulolaviy maqom va muqaddaslik semantikasi kuchli. Bu nom o‘zida diniy e‘tiqod, shaxsiyatni qadrlash va tarixiy xotira komponentlarini aks ettiradi. Xuddi shuningdek, “Hakim at-Termiziy” bilan bog‘liq obyekt nomlarida shaxs nomi markaziy nominativ komponent bo‘lib, u shahar ilm-ma‘rifat tarixini “joy nomi” orqali mustahkamlaydi. Termiz shahrida uchraydigan ba‘zi toponimlar esa afsona va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘langan bo‘lib, bunday nomlarda metaforik va konnotativ qatlam aniq seziladi. Masalan, “Qirq-qiz” nomi rivoyatga tayanuvchi birlik sifatida, nafaqat joyni nomlash, balki hududga daxldor mifik obrazlar va qadriyatlarni ham saqlab keladi. Bu kabi toponimlar lingvokulturologik yondashuvda “kulturologik kodlangan birliklar” sifatida talqin etiladi. Bu jihatlar Termiz toponimik tizimining asosiy xususiyatini belgilaydi: shahar nomlash an‘anasi tarixiy-madaniy qatlamlarga tayangan holda shakllangan.

XULOSA

Mazkur maqolada Termiz va Winchester shaharlarining toponimik ob‘ektlari nomlari misolida o‘zbek va ingliz tillarida toponimlarning chog‘ishtirma tahlili amalga oshirildi hamda toponimik birliklarning struktur-semantik, nominatsion va lingvokulturologik xususiyatlari ilmiy asosda yoritildi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi: Toponimlar tilning nominativ tizimi doirasida shakllanadigan, tarixiy-madaniy axborotni saqlovchi hamda milliy tafakkur va mentalitetni aks ettiruvchi muhim onomastik birlik ekanligi Termiz va Winchester toponimik materiallari misolida tasdiqlandi. Toponimlar lingvistik birlik bo‘lishi bilan bir qatorda, xalqning tarixiy xotirasini “kodlovchi” madaniy belgilar sifatida ham namoyon bo‘ladi. Termiz shahri toponimik tizimida diniy-tarixiy motivatsiya yetakchi ekanligi aniqlandi. Shahar toponimlarining muhim qatlami arxeologik yodgorliklar, muqaddas qadamjolar, tarixiy shaxslar hamda rivoyat-afsonalar

bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat Termiz toponimik makonining asosiy semantik “tayanchi”ni belgilaydi. Vinchester shahar toponimik tizimida esa urbanistik-funksional motivatsiya ustunlik qilishi belgilandi. Ko‘cha, yo‘l, bino va maydon nomlarida shahar infratuzilmasi, yo‘nalish va lokatsiya (road/street/lane kabi elementlar) asosiy nominatsion model sifatida shakllangan bo‘lib, bu Winchester urbanonimlarining struktur barqarorligi va shahar hayoti bilan bevosita bog‘langanligini ko‘rsatadi. Chog‘ishtirma tahlil natijasida har ikkala shahar toponimik makonida tarixiy qatlamning mavjudligi umumiylik sifatida belgilandi. Biroq Termizda tarixiylik ko‘proq muqaddaslik va ma’rifiy meros orqali ifodalansa, Winchesterda tarixiylik diniy arxitektura va shahar tuzilishi (urban kod) orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi. Toponimlarning struktur xususiyatlari nuqtayi nazaridan Termiz toponimikasida ko‘p komponentli, semantik yuklamasi kuchli nomlar (madaniy-tarixiy ma’no bilan boyigan birliklar) ko‘pligi kuzatiladi. Winchester urbanonimlarida esa funksional belgi bildiruvchi struktur markerlar (street, road, lane, cross va b.) yetakchi bo‘lib, toponimlarning grammatik modeli ancha standartlashgan. Tadqiqot doirasida toponimlarning lingvokulturologik tahlili shuni ko‘rsatdiki, joy nomlari milliy qadriyatlar, diniy tasavvurlar, hududiy identifikatsiya va madaniy stereotiplarni aks ettiruvchi “madaniy matn” hisoblanadi. Demak, Termiz va Winchester toponimlarini qiyosiy o‘rganish nafaqat onomastik birliklarning til tizimidagi o‘rnini, balki ikki xalqning madaniy tafakkuridagi farqli konseptual belgilarning til orqali ifodalanishini ham yoritadi. Umuman olganda, Termiz va Winchester toponimik materiallari asosida olib borilgan chog‘ishtirma tadqiqot toponimlarning semantik motivatsiyasi, nominatsion modellarining shakllanishi hamda lingvokulturologik belgilarini aniqlash orqali onomastika va qiyosiy tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini kengroq talqin etishga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили ономастикаси. – Тошкент: Фан, 2009.
2. Аслонов А.С. Ўзбек тилида топонимлар ва уларнинг лексик-семантик хусусиятлари. – Тошкент, 2005.
3. Бўриев С.Н. Ўзбек топонимияси: лингвистик таҳлил. – Самарқанд, 2010.
4. Begmatov E. O‘zbek onomastikasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Eshonqulov J. Toponimika va til madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
6. Enazarov T.J. O‘zbek toponimlarining tarixiy-etimologik tahlili. – Toshkent, 2006.
7. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
8. Qodirov A. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
9. Rahmatov T. O‘zbek toponimiyasining rivojlanishi. – Toshkent, 1973.
10. Temirov Sh. Toponimlarning etnolingvistik tadqiqi. – Toshkent, 2019.
11. Room A. Dictionary of Place-Names in the British Isles. – London: Bloomsbury, 1997.

12. Mills A.D. A Dictionary of British Place-Names. – Oxford: Oxford University Press, 2011.
13. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
14. Coates R. The Place-Names of England and the Language of the Anglo-Saxons. – Cambridge, 2013.